



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqqa boshlagan

№8 (818), 2026-yil 30-aprel

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga

MUSTAQILLIK — TARAQQIYOT VA FAROVONLIK POYDEVORI

Mustaqillik – xalqimizning eng katta yutug'i hamda asrlar davomidagi orzu-umidlari, ozod va farovon hayotga bo'lgan intilishlarining ifodasidir. Bugun aynan shu buyuk ne'mat tufayli O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini mustaqil belgilab, jahon hamjamiyatida tobora mustahkam va munosib o'rin egallab borayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Milliy suverenitet va davlat mustaqilligi har qanday mamlakat taraqqiyotining eng muhim va hal qiluvchi asoslaridan hisoblanadi. Zero, mustaqillik davlatning o'z taqdirini o'zi belgilashi, ichki va tashqi siyosatini erkin amalga oshirishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Suverenitet esa mamlakatning xalqaro maydonda teng huquqli subyekt sifatida shakllanishiga, uning manfaatlarini va qadriyatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Ayni shu omillar jamiyatning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy o'sishi, ijtimoiy farovonligi va madaniy rivojini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Joriy yilda mamlakatimiz hayotida muhim sana – O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi keng nishonlanadi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi. Unda qayd etilganidek, O'zbekistonning milliy mustaqilligi mard va matonatli xalqimizning qat'iy irodasi, istiqbol yo'lida kurashgan ajdodlarimiz orzu-intilishlarining ro'yobi sifatida Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

O'tgan 35 yillik tariximizda mamlakatimiz ulkan yutuqlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Buning asosiy omili xalqimizning hamjihat, yakdil bo'lib olg'a intilayotgani, bunyodkorlik ruhi bilan yashayotgani, desak ayni haqiqatdir.

Qarordagi "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" g'oyasi esa ushbu ezgu sa'y-harakatlarga hamohang. Mazkur g'oya orqali jamiyatning barcha qatlamini mushtarak maqsad atrofida jipslashtirish ko'zda tutilgan. Zero, yurtimizning har bir fuqarosi mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlarni, yaratilayotgan imkoniyatlarni chuqur anglab yetsa, u islohotlarning faol ishtirokchisiga aylana. Bu esa, o'z navbatida, yurtimiz taraqqiyotini yanada jadallashtirib, o'ldimizga qo'ygan dovonlarni zabt etishimizga yordam beradi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida Yangi O'zbekiston g'oyasi asosida boshlangan ulkan islohotlar natijasida xalqimiz hayoti tubdan o'zgarayapti. Yurtimizda ulkan jarayonlar sodir bo'lmoqda, misli ko'rilgan ko'lamli qurilishlar davom etmoqda. Inson qadr-qimmatini ulug'lanmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish borasida muhim qadamlar tashlanmoqda. Ayniqsa, investitsiya muhitini yaxshilash va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash tufayli iqtisodiy o'sishga erishilyapti. Ijtimoiy sohada ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimini isloh qilish, zamonaviy maktab va oliy o'quv yurtlarini barpo etish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sog'liqni saqlash



tizimidagi yangilanishlar esa aholi salomatligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xalqaro maydonda ham O'zbekiston ochiq va do'stona siyosat yuritib, o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlamoqda. Bu esa mamlakatimizning dunyo miqyosidagi nufuzini yanada oshiryapti. Eng asosiysi, mustaqillik yillarida yurtimizda tinchlik-osoyishtalik, millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhiti qaror topdiki, bu barqaror taraqqiyotning eng muhim omilidir.

Amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida inson manfaati va uning qadr-qimmatini ustuvor o'rin egallamoqda. Bu esa fuqarolarimizda shukronalik, yurt taqdiriga daxldorlik va ertangi

kunga ishonch tuyg'ularini mustahkamlamoqda. Qarorda belgilangan vazifalarning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liq holda, mamlakatimizning barqaror rivojlanishiga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Jahonda oltin ishlab chiqaruvchi eng yirik kompaniyalaridan biri bo'lgan Navoiy kon-metallurgiya kombinatida davlatimiz rahbari tomonidan qo'yilgan vazifalarni so'zsiz bajarish bo'yicha ishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Jumladan, "Muruntov" konini o'zlashtirish V navbati 2-bosqichi va "Nuqraqon" va "Kosmonachi" konlaridan kumush ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish, Qoqpatas" va "Dovg'iztov" oltin konlarida ma'dan

qazib olish. III-navbati" kabi investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda.

Kombinatimizda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz besh yilligiga bag'ishlangan bayramni ko'tarinki ruhda kutib olish, unga puxta tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olindi. To'yga to'yona deganlaridek, mustaqillik bayrami arafasida 2-gidrometallurgiya zavodida ma'danni qayta ishlash quvvatini yiliga 55 million tonnaga yetkazish imkonini beruvchi yangi bloklar ishga tushiriladi, 3-gidrometallurgiya zavodida zamonaviy gradimriya binosi foydalanishga topshiriladi, 7-gidrometallurgiya zavodi qayta ishlash quvvatini 10 million tonnaga oshirish loyihasi

amalga oshiriladi. Shuningdek, Janubiy kon boshqarmasida 400 o'rinni maishiy bino, "Dovg'iztov" koni ishchi-xodimlari uchun 250 o'rinni oshxonaga qurilib ishga tushiriladi va Zarafshon shahridagi "Oltin vodiy" madaniyat saroyi kapital ta'mirlanib, foydalanishga topshiriladi.

Kombinat bo'linmalari ishchi-xodimlari, yoshlari va xotin-qizlari o'rtasida "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, davlat mukofoti sohiblari, taniqli adiblar, olimlar, mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar, kombinat bo'linmalarida "Ayol qadri ulug'langan yurt" shiori ostida bayram festivali hamda turli yo'nalishlarda sport tadbirlari o'tkaziladi.

O'tayotgan har bir kun bizni mustaqilligimizning 35 yillik tantanalarga yaqinlashtirmoqda. Bu esa qalbimizda cheksiz g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Shu bilan birga, yuragimizda yana bir muqaddas his – mustaqilligimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, uni yanada mustahkamlash va yurt ravnaqi uchun o'z hissamizni qo'shishdek yuksak mas'uliyatni ham oshiradi.

Mustaqilligimizning 35 yilligi – bu faqat bayramona shodiyona emas, balki o'tgan yo'limizni chuqur anglash, erishilgan yutuqlarimizni munosib baholash va kelajak taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratish imkoniyatidir. Bu sana har birimizdan yurtimiz taqdiriga daxldorlik hissinu yanada oshirishni, birdamlik va fidoyilik bilan yangi marralar sari intilishni talab etadi. Shu yo'l bilan biz mustaqilligimizning qadriini yanada yuksaldirib, Vatanimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligiga munosib hissa qo'sha olamiz.

Quvondiq SANAYLOV,
"NKMK" AJ Boshqaruvi raisi –
Bosh direktori.

■ Davr nafasi

YOSH STRATEGLAR ANJUMANI

Barchaga unutilmas taassurot va bilimlar hadya etdi

Joriy yilning 15-17-aprel kunlari Qiziltepa tumanidagi "To'dako'l" dam olish maskani hududida joylashgan Xalqaro shaxmat maktabida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, Rossiya Fanlar akademiyasining xorijiy a'zosi, Moskva davlat universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori Vladimir Kvintning yosh strateglar maktablari, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti hamkorligida yosh strateglar V xalqaro anjumani o'tkazildi.

Unda Moskva davlat universiteti yetakchi professorlari, Rossiya hamda O'zbekistonning bir qator universitet, litsey va maktablarining yosh strateglari hamda olimlari ishtirok etdi. Anjumaning birinchi kunida Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomnigiga ekskursiya tashkil etildi. Mehmonlar qo'riqxonaga faoliyati bilan tanishtirilgan ekan, yoshlarga ekologiya sohasidagi strategik loyihalar ustida ishlash masalalari bo'yicha ham tushunchalar berildi.

Anjumaning ikkinchi kuni uchrashuvlar va qizg'in muloqotlarga boy bo'ldi. Ochilish marosimida so'zga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Atrof-muhit masalalari bo'yicha maslahatchisi – Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri Shavkat Hamroyev, "NKMK" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Quvondiq Sanaqulov, Rossiya Fanlar akademiyasining xorijiy a'zosi, Moskva davlat universiteti professori Vladimir Kvint, Chiqindilarni boshqarish va sirkular iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi direktori Sharifbek Hasanov ham-

da Moskva davlat universiteti professori Irina Novikovalarning bugun strategik bilimlarga ega yosh avlodni tarbiyalashning ahamiyati haqidagi fikr-mulohazalari tinglandi.

– Vladimir Kvintning yosh strateglar maktablari o'z atrofiga ko'plab iste'dodli yosh strateglarni birlashtirib, ularni tarbiyalash, fikrlash va yetakchilik fazilatlarini shakllantirish, jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bugun o'tayotgan tadbirdan ham ana shu maqsad ko'zlangan. Bizning universitetimiz qoshida ham xuddi shunday maktab faoliyat olib bormoqda. Ayni paytda hamkorlikda o'tayotgan anjuman ham turli mamlakatlardan kelgan o'quvchi va pedagoglar uchun o'zaro fikr-mulohaza, tajriba almashish, strategik loyihalarni muhokama etish va kelgusi rejalarini belgilashda ochiq muloqot maydoniga aylandi, – deydi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti rektori Baxtiyor Mardonov.

Anjumanda bir guruh ishtirokchilarga Vladimir Kvintning yosh strateglar maktablari va Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar univer-



sitetining Faxriy yorliqlari va Tashakkurnomalari topshirildi. "Farhod" madaniyat saroyi xonalarining konsert dasturi barchaga xushkayfiyat ulashdi. Anjuman kun tartibi seminar-treninglar bilan davom etib, yakunda barcha ishtirokchilarga sertifikatlar taqdim qilindi.

– Moskva davlat universiteti huzuridagi Iqtisodiyot maktabi, xususan professor Vladimir Kvint va boshqa olimlar bilan yaqin hamkorlik qilib kelmoqdamiz, – deydi NDKTU "Mintaqaviy va korporativ strategiyalar" kafedrasini mudiri Kristina Chekulayeva. – Kafedramiz negizida tashkil etilgan yosh strateglar maktabida mashg'ulotlar muntazam olib borilmoqda. Hamkorlikda o'tgan navbatdagi anjumanimiz yosh strateglarning bugungi kunda ustuvorlik kasb etayotgan yashil iqtisodiyot sohasida amaliy taklif va loyihalar ishlab chiqish borasidagi bilimlarini mustahkam-

lashga qaratildi.

– Anjumanda g'oya va tashabbuslarimiz keng muhokama qilindi, – deydi NDKTU akademik litseyi o'quvchisi Lola Qalandarova. – Har bir uchrashuv va seminarlarda yoshlarning o'ziga ishonch, strategik fikrlash ko'nikmalarini oshirishga harakat qilindi. Kelajakda iqtisodiyot sohasida xorijda ta'lim olmoqchiman. Umuman, strategiya nazariyasi hayotning har bir jabhasida zarur, deb hisoblayman. Shuning uchun, litseyimizda tashkil etilgan yosh strateglar maktabi faoliyatida muntazam qatnashib kelyapman.

Anjumaning uchinchi kuni qatnashchilarning Buxoro shahriga sayohati tashkil etildi. Ushbu ma'naviy-ma'rifiy ekskursiya ishtirokchilarga yurtimizning boy tarixi va ajdodlarimizning bebaho merosi bilan yaqindan tanishish va chuqurroq anglash imkonini berdi.

– Ham sayohat qilyapmiz, ham strategik sohadagi bilimlarimizni oshiryapmiz, – deydi Rossiyaning Kemerovo shahridagi yosh strateglar maktabi o'quvchisi Ulyana Gerasimova. – Ertaklardagidek qadimgi shaharga ilk bor kelishim, u menda bir olam taassurot qoldirdi. O'zbek xalqining buyuk tarixini o'rganish va uni tengdoshlarimga targ'ib qilishni maqsad qildim.

To'dako'lning so'lim tabiati, Qizilqum kengliklarida joylashgan tabiat mo'jizalari va zamonaviy obyekt – Xalqaro shaxmat maktabidagi qulay shart-sharoitlar hamda tarix nafasi bilan hamohang kechgan uch kunlik tadbir dasturi yoshlarda unutilmas taassurotlar qoldirdi. Mazkur loyiha ularda strategik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Azamat ZARIPOV,
Ozod MUSTAFOYEV.

■ MKB Temir yo'l transporti boshqarmasi tashkil topganligining 60 yilliga

Iqtisodiyotning qon tomirlariga qiyoslangan temir yo'l transporti xo'jalik yuklari va yo'lovchilarni tashishda eng qulay va arzon transport vositasi hisoblanadi. Temir yo'l borgan mudzillarda yangi korxonalar barpo etiladi, bunyodkorlik ishlari avj olib, hududlar bilan iqtisodiy aloqalar rivojlanadi. Mamlakatimizning duru javohirlar xazinasi hisoblangan Zarafshon vohasida aholining yashashi uchun ko'p xonadonli uylar qurilishi, zavod va ishlab chiqarish korxonalarining barpo etilishi, oltin qazib olish barqarorligini ta'minlash uchun har tomonlama qulay va arzon transport vositasi zarur edi.

SHONLI SANA SHARAFIGA



Markaziy kon boshqarmasining Temir yo'l transporti boshqarmasi tarixi 1965-yilning yoz faslida, asriy Qizilqum sahrosi bag'rida "Qizilquduq" temir yo'l stansiyasidan "Yangi-Zarafshon" stansiyasigacha temir yo'l qurilishi boshlanishi bilan chambarchas bog'liq. Oradan bir yil o'tib, temir yo'l qurilishi ishlari yakunlangach, Temir yo'l transporti sexiga asos solingan. 1991-yilda esa "O'zbekiston temir yo'llari" DATKdan ishchi poyezd, ikkita stansiya parki va "Yangi-Zarafshon" stansiyasi MKB temir yo'l sexi tasarrufiga o'tkazilganidan so'ng, Temir yo'l transporti boshqarmasi tashkil etilgan. Bugungi kunda Temir yo'l transporti boshqarmasi zamonaviy ishlab chiqarish, ijtimoiy va transport infratuzilmasiga ega ko'p tarmoqli, yirik majmuaga aylandi. Albatta, oltin yil davomida korxonada minglab



mutaxassislar va turli kasb egalari kunni tunga ulab fidokorona mehnat qilishdi.

Ayni damda boshqarma tasarrufigidagi ekspluatatsiya qilish, lokomotiv, yo'l, vagon, elektr-mexanika, signallashtirish, markazlashtirish, blokirovkalash, nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika hamda aloqa kabi xizmatlar, kadrlar bo'limi, mehnatni tashkil etish va ish haqi, moddiy texnika ta'minoti, texnik, harakat xavfsizligi va sifat nazorati, yoqilg'i-energetika manbalarini monitoring qilish kabi byuroklar hamda ma'muriy-xo'jalik qismi kabi bo'linmalarda 1200 dan ortiq ishchi-xizmatchi, muhandis-texnik xodimlar faoliyat olib borishadi.

Temir yo'l transporti boshqarmasi "Muruntov" koni bilan 2-gidrometallurgiya zavodini bog'lab turuvchi asosiy va muhim tarkibiy bo'g'in bo'lib, temir yo'lchilar kuniga 154 ming tonnadan ortiq ma'danni konda zavodgacha yetkazib berib, o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarmoqdalar. Bundan tashqari, jamoa har kuni 3 marta Zarafshon shahridan "Beshapan" ishlab chiqarish maydonigacha bo'lgan 31 kilometrlik masofaga Markaziy kon boshqarmasining bo'linmalarida mehnat qilayotgan ikki ming nafarga yaqin ishchi-xizmatchilarni 18 vagonli yo'lovchilar poyezdida o'z vaqtida ishga va ishdan keyin shaharga yetkazish vazifasini amalga oshirib kelmoqda. Mazkur yumushlar uchun Temir yo'l transporti boshqarmasi tasarrufiga 196 kilometr temir yo'llar mavjud bo'lib, 26 ta yo'lovchi vagonlar, 390 dan ortiq yuk tashuvchi vagonlar hamda 34 ta teplovozlar jalb qilingan.

So'nggi ikki yilda temir yo'llar qurish, mavjud liniyalarni rekonstruksiya qilish, yuk hamda

yo'lovchi tashish transportini modernizatsiya qilish bo'yicha qator loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, 12-sonli ulovchi temir yo'lini rekonstruksiya qilish va "Oltin uyumda eritmaga o'tkazish sexi" konida qo'shimcha 4 kilometr uzunlikda bufer ombori, "Beshapanov" konining I, II-bosqichida 3 kilometr bo'lgan uzunlikdagi temir yo'li, "Muruntov" konining sharqiy tomonida yangi temir yo'l stansiyasi qurilishi nihoyasiga yetkazilib, "Yangi Zarafshon" – "Muruntov" hamda "Muruntov" – "Yangi Zarafshon" yo'nalishlari bo'yicha harakatlanayotgan yo'lovchi poyezdida qatnovchilar sonining oshishi munosabati bilan yo'lovchilarga qulay, xavfsiz va kam vaqt sarflagan holda ularni manzillariga yetkazish maqsadida 3 kilometr uzunlikdagi temir yo'li kapital ta'mirlashdan chiqarilib, foydalanishga topshirildi. Shuningdek, "Chuqurquduq" temir yo'l stansiyasi aloqa qurilmalari bilan jihatlandi va elektr markazlashtirishga kiritilib, to'liq foydalanishga topshirildi. "Muruntov" konida yangi temir yo'llarni qurish, signallashtirish, markazlashtirish va blokirovkalash, kerakli qurilmalar bilan jihozlash ishlari to'liq amalga oshirilib, foydalanishga topshirildi. Shu bilan transport sektoridagi tashish jarayonlarining taxminan 60 foizini qamrab olgan boshqarma temir yo'llari yuk va yo'lovchi tashishga bo'lgan ehtiyojni to'liq qondirib kelmoqda. Investitsiya loyihalarining o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishida temiryo'lchilarning xizmatlari beqiyos bo'lmoqda.

Temir yo'l transporti boshqarmasi jamoasi har bir ishchi-xodimining mehnati e'tirofiga munosib. Boshqarma mahalliyashtirish dasturi ijrosi bo'yicha "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJda

ilg'orlardan sanaladi. Boshqarmaning vagon xo'jaligida keyingi yillarda mahalliyashtirish dasturi doirasida 97 ta vagonning xizmat muddati uzaytirilib, bundan 58 milliard 565 million so'm iqtisod qilishga erishildi. Ushbu vagonlardan bugungi kunda Temir yo'l transporti boshqarmasida muvaffaqiyatli foydalanilmoqda va natijada vagonlarni navbatdan tashqari ta'mirlash ishlari-ga jalb etilishi oldingi yillarga nisbatan qariyb 70 foizga qisqardi. Ag'darma-vagonlarni chetdan xarid qilish narxi 3,3 milliard so'mdan ortiqroq

bo'lsa, uni vagon xo'jaligi mahalliyashtirish se-xida yig'ish uchun 522,3 million so'm sarflan-yapti, xolos. Hozirgi kunda ag'darma-vagonlarni chetdan sotib olish uchun sarflanadigan mablag' evaziga vagon xo'jaligining mahalliyashtirish sexida 6 ta ag'darma-vagonni yig'ish imkoniyati yaratildi. Yaqin yillargacha vagonlar uchun talab qilinadigan ehtiyot qismlar valuta hisobiga chetdan keltiriladi. Hozirgi kunga kelib vagonlarni ta'mirlash uchun zarur bo'lgan ehtiyot qismlarni Navoiy mashinasozlik zavodida tayyorlash yo'l-ga qo'yilib, chetdan sotib olinuvchi ehtiyot qismlarni 70 foizga qisqartirishga erishildi.

Boshqarmada temir yo'l sohasida xavfsizlik, shaffoflik va nazorat samaradorligini oshirish maqsadida raqamlashtirish jarayonlari izchil davom etmoqda, zamonaviy boshqaruv me-

xanizmlarini joriy etish bo'yicha kompleks cho-ra-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Temir yo'l stansiyalarida markazlashtirish boshqaruv pulti yangidan ishlab chiqilib, svetodiodli boshqaruv pulitiga almashtirildi. Shuningdek, korxonalarda linza chiroqli svetoforlar to'plamlari o'rniga sve-todiodli to'plamlar o'rnatildi. Poyezdlar harakati-ni jadallashtirish, harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida 9462 metr uzunlikdagi zamonaviy kabellar yotqizildi.

Temir yo'lchilarning mehnat va dam olish sharoitlarini yaxshilash masalasi doimo rahbariy-at e'tiborida. Korxonada hududida joylashgan ov-qatlanish xonasi to'liq ta'mirlanib, kerakli jihozlar bilan ta'minlangan va ishchilar uchun muntazam ravishda issiq ovqat va kaloriyalarga boy mah-sulotlar yetkazilib berilyapti. Xodimlar xonalari hamda yordamchi xonalarda ta'mirlash ishlari olib borilib, suv quvurlari yangilandi. Ishchi-xo-dimlarning dam olishlari tashkil etilib, ma'naviy-madaniy tadbirlar, sportning turli yo'nalishlarida musobaqalar muntazam o'tkazilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, boshqar-mada kadrlarni tayyorlash, joy-qiyoga quyishga alohida e'tibor berilmoqda. So'nggi ikki yilda 34 nafar oliy va 35 nafar o'rta maxsus ma'lumotga ega yosh kadrlar ishga qabul qilinib, kombinati-miz tizimida yaxshi yo'lga qo'yilgan "Ustoz-sho-gird" an'anasiga asosan malakali mutaxassis-larga birlashtirildi. Mutaxassislar yoshlarga kasb sirlari bilan birga, mas'uliyat va o'z burchlarini his etishni ham astoydil o'rgatmoqdalar.

60 yil – tarix oldida qisqa fursat bo'lsada, bu vaqtda teplovoz mashinisti, stansiya bo'yicha navbatchi, yo'l montyori, harakatlanuvchi tarkibi-ni ta'mirlovchi, chilangar, elektrgazpayvandchi, chilangar-ta'mirlovchi, signallashtirish, markaz-lashtirish, blokirovkalash, nazorat-o'lchov as-boblari va avtomatika uskunalarini elektrmontyo-ri va boshqa soha mutaxassislari hamda kasb vakillaridan tashkil topgan Temir yo'l transporti boshqarmasi shakllandi va rivojlanish bosqich-larini bosib o'tdi. Har bir yil mehnat muvaffaqi-yatlari, yangi texnologiyalarni qo'llash, tezkor hamda murakkab ishlab chiqarish yechimlariga boy bo'ldi. Mustaqilligimizning 35 yilligi va ko-rxonada tashkil topganligining 60 yillik sanasini nishonlash arafasida turgan jamoa kelajakka yuksak ishonch bilan oldiga qo'yilayotgan vazifa-larni o'z vaqtida bajarish uchun barcha imko-niyatlarni yubileyini munosib mehnat sovg'alari bilan kutib olish yo'lida safarbar etyapti.

Nafosat ZIYOYEVA.
Viktor YAKOVLEV olgan suratlar.

■ Mahalliyashtirish

MANFAATLI HAMKORLIK – iqtisodiy rivojlanish omili

Barcha sohada bo'lgani singari O'zbekiston tog'-kon va geologiya sanoati tarmog'idagi yirik korxonalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, bunda ayniqsa, mahalliyashtirish dasturi doirasida mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratish har tomonlama manfaatli bo'lib, iqtisodiy rivojlanishning muhim shartidir. Jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish talabi ham shuni taqozo etmoqda.



"O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati Bosh-qaruv raiisi – Bosh direktori Bahodir Abdullayev boshchiligidagi delegatsiya ana shu maqsadda tashrif bilan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatida bo'ldi. "O'zmetkombinat" AJ bosh muhandisi Azizbek Adilov, Investitsiya-lar departamenti boshlig'i Narimon Umerov, shar prokat bo'linmasi boshlig'i Sarvar Allaberdiev, Investitsiyalar departamenti yetakchi muhandisi Abbas Ergashboyev, "Metallurgiya servis mar-kazi" MChJ direktori Adxam Ataxanov, Axborot kommunikatsiya texnologiyalari boshqarmasi yetakchi muhandisi Abduraxmon Inomovlardan iborat delegatsiya a'zolari korxonalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlashning asosiy yo'nalishlari yuzasidan kelishib oldilar.

Navoiy mashinasozlik zavodida "NKMK" AJ Boshqaruv raiisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov va "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raiisi – Bosh direktori B.Abdullayev hamda ikkala korxonada mas'ul vakillari o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashu-va hamkorlik istiqbolari atroflicha muhokama qi-lindi. Tadbirda "O'zmetkombinat" AJ Investitsiya-lar departamenti boshlig'i N.Umerov korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlari va amalga oshirila-yotgan ishlari haqida axborot berdi. Texnologik yangilanishlar, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomat-lashtirish, mahsulot sifatini yaxshilashga e'tibor berilayotganligi bois kombinat keyingi yillarda ichki va tashqi bozorda ishonchli hamkor sifati-da e'tirof etilmoqda. Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatida maydalovchi tegirmonlar uchun po'lat sharlar ishlab chiqarish muhim o'rinni tutadi. Shu boisdan hozirgi kunda investitsiya dasturi doirasida po'lat sharlar ishlab chiqarish quvvatlarini bos-qichma-bosqich oshirishga qaratilgan loyihalarni ro'yobga chiqarish rejalashtirilgan. Ishga tushirili-shi joriy yilning avgust oyiga mo'ljallangan loyiha doirasida diametri 40 va 50 millimetrlar bo'lgan IV va V guruhdagi po'lat sharlarni ishlab chiqarish o'zlashtirildi, 40 ta yangi ish o'rni yaratildi. Lo-yihaning birinchi bosqichiga qaratilgan loyihalarni o'zlashtirishda 35 ming tona po'lat sharlar ishlab chiqariladi va "O'zmetkombinat"ning yillik quvvati 300 ming tonnaga yetkaziladi. Ikkinchi bosqichda diametri 40, 50, 65, 100 va 120 mil-limetrlari I va II guruh po'lat sharlar o'rniga ushbu o'lchamdagi III, IV va V guruhdagi po'lat sharlar ishlab chiqariladi. Asosiy sa'y-harakatlar yirik ish-lab chiqarish loyihalarini amalga oshirish, sama-

rali logistika janrlarini shakllantirish, tovar ayri-boshlash hajmini oshirishga qaratilganidir. Loyiha to'liq amalga oshirilgandan so'ng yiliga 450 ming tona mahsulot ishlab chiqariladi hamda Navoi-y va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlarining 2030-yilga qadar po'lat sharlarga bo'lgan ehtiyo-jini qondirishga erishiladi.

Uchrashuvda "Metallurgiya servis markazi" MChJ direktori A.Ataxanov o'z chiqishida mar-kaz faoliyatiga batafsil o'txtildi. Markazda quyuv uchastkasi, mexanika, metall konstruksiyalar, mexanik uskunalarini ta'mirlash bo'linmalari, elek-trotexnika laboratoriyasi, elektr ta'mirlash sexi mavjud bo'lib, jamoa po'lat, cho'yan va rangli me-tallardan quyma mahsulotlar, metallkonstruksiya-lar ishlab chiqaradi, detallar va ehtiyot qismlarni qayta ishlaydi, elektr jihozlari va elektr tarmoqla-rini sinovdan o'tkazish hamda diagnostika qilish, elektrotexnik uskunalarini ta'mirlash, mexanik va gidravlik uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Muloqot jarayonida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ Boshqaruv raiisi – Bosh direktori kombinatning yetakchi mutaxas-sislari va Navoiy mashinasozlik zavodi rahbarla-riga "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati bilan o'zaro hamkorlik qilishning asosiy yo'nalishlari haqida zarur ko'rsatmalar berdi.

Mehmonlar Navoiy mashinasozlik zavodining quymachilik, stanoksozlik, mexanik-yig'uv, qozon payvandlash, polimer va rezina mahsulotlari sex-larida bo'lishib, ishlab chiqarish jarayonlari, inno-vatsion yechimlarning tatbiq etilishi, eng muhimi, mahalliyashtirish dasturi doirasida olib borilayot-gan ishlar, bu borada to'plangan tajriba bilan ta-nishdilar. Qizg'in muloqot, savol-javoblar tarzida kechgan jarayonda har ikkala korxonada mutaxas-sislari ehtiyot qismlar, butlovchi buyumlar ishlab chiqarish bo'yicha kooperatsiya aloqalarini mus-tahkamlash va mahalliyashtirish yuzasidan tajriba almashish xususida takliflar bildirildilar.

Muzokara va muhokamalar juda samarali bo'ldi. "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ hamda "O'zmetkombinat" AJ o'rtasida hamkorlik qilish haqida memorandum imzolandi. Bu, hech shubhasiz, o'zaro hamkorlikni yangi bosqich-ga olib chiqish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Nizomiddin SADRIDDINOV.

■ Mehnat muhofazasi oyligi

FAROVIY MEHNAT MUHITI – TARAQQIYOT GAROVI

Bugungi kunda har qanday yirik ishlab chiqarish korxonasi faoliyatida inson omili, uning xavfsizligi va ruhiy barqarorligi eng ustuvor masalalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, sanoat sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarda mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligiga alohida e'tibor qaratish nafaqat ish samaradorligini oshiradi, balki xodimlarning hayoti hamda sog'ligini asrashga xizmat qiladi.

Shu nuqtai-nazardan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati korxonalarida ishchi-xodimlarning mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasiga oid bilimlarni doimiy ravishda oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. 28-aprel – Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuniga bag'ishlab kombinat bo'linmalarida "Mehnat muhofazasi oyligi" o'tkazilmoqda. Markaziy kon boshqarmasining Tashqi suv ta'minoti birlashgan energoxizmatida ana shu mavzuda seminar-trening tashkil etildi.

Psixologik ish muhiti – bu jamoadagi ruhiy holat, o'zaro munosabatlar, ish sharoitlari va rahbariyat bilan muloqot madaniyatining uyg'unligidir. Agar ish joyida sog'lom muhit yaratilsa, xodim o'zini himoyalagan, qadrlangan va ishonchli his etadi. Bu esa o'z navbatida mehnat unumdorligini oshirishga, ishda xatolarni kamaytirishga va umumiy ish samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Seminar-treninglar davomida ishtirokchilarga zamonaviy mehnat muhofazasi talablari, ish joyida xavfli vaziyatlarni oldindan aniqlash va bar-

taraf etish bo'yicha amaliy ko'nikmalar berilmoqda. Jamoada o'zaro hurmat va ishonch muhitini shakllantirish, nizolarni to'g'ri hal qilish kabi muhim mavzular ham keng yoritilmoqda. Bunday tadbirlar nafaqat bilim berish, balki xodimlarni ruhlantirish, ularni jamoa manfaati yo'lida birlashtirish vazifasini ham bajaradi. Chunki kuchli tashkilot – bu, avvalo, o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashadigan, sog'lom va baxtli xodimlar jamoasidir.

Markaziy kon boshqarmasi tizimida o'tkazilayotgan "Mehnat muhofazasi oyligi" tadbirlari ishlab chiqarish madaniyatini yanada yuksaltirish, xavfsiz va barqaror mehnat muhitini ta'minlash yo'lida muhim qadam hisoblanadi. Bu kabi tashabbuslar kelajakda ham izchil davom ettirilishi, har bir xodimning hayoti va sog'ligi eng oliy qadriyat sifatida e'zozlanishi zarur.

Vadim YUSUBOV,
"NKMK" AJ Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi Bosh boshqarmasi Markaziy boshqarmasi bo'lim boshlig'i.

Amir Temur tavalludining 690 yilligiga

Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda.

ADOLATLI JAZO

Bu hikoyani uzoq Shimolda, sho'ra armiyasida harbiy xizmat o'tayotgan paytimda ukrain millatiga mansub do'stimdan eshitgandim.

Bundan olti asr muqaddam hozirgi Rossiyaning katta qismi Oltin O'rda davlati tarkibida bo'lgan. Uning hukmdori To'xtamishxon jahongirlik da'vosida Turkiston shaharlariga ham xuruj qiladi. Sohibqiron Amir Temurning masalani tinch yo'l bilan hal etish maqsadidagi sa'y-harakatlari natija bermagach, To'xtamishxon qarshi harbiy yurish qilishga majbur bo'ladi.

Amir Temur qo'shini Don va Dnepr bo'ylaridagi keng dashtlardan o'tib, Lvov shahriga yaqinlashadi. Turgan gapki, shaharda bu jangovar qo'shinga qarshi tura oladigan kuch bo'lmagan. Vahima boshlanadi. Ko'p o'tmay Sohibqironning ilg'or qismlari shaharga kirib kela boshlaydi. U paytlar Lvov kichik va ko'rimsiz qo'rg'on bo'lgan, yog'och uylar (ukraincha xata)ning tomiga poxol bostirilgan. Uylarning bo'g'otida kaphtarlar ko'p edi (hozir ham shunday).

Boyonlar topgan-tutganini peshkash qilib, jahongirdan shafqat so'rashadi. Ammo o'sha davr odatiga ko'ra shahar ahli to'lashi kerak bo'lgan o'lpandan Sohibqiron voz kechadi. Buning o'rniga, har bir xonadondan atigi bittadan... kaphtar olishga amr etadi. Bu g'alati talab shu zahoti bajo keltiriladi.

Behisob qo'shin tinch aholiga ziyon yetkazmay,

uch-to'rt kun davomida shahar yonidan o'tadi. Ilg'or jangovar qismlar ellik-yuz chaqirim masofaga uzoqlashib ketadi. Nihoyat, bir haftadan so'ng qo'shin oxirida ko'ch-ko'ron ortilgan aravalalar, chorva hamda xo'jalik xizmatchilari o'tayotganida, shahar ahlining fikri buziladi. "Bu sahrayo'i bosqinchi bizing drujinamizdan qo'rqdi. Shu sababli durustroq o'p'on so'rashga ham botina olmadi", — deb dadilana boshlaydilar. Insonning fe'li qiziq-da. Kechagina jonlari omon qolishi uchun bor-budidan voz kechishga tayyor turgan shaharliklar hatto, qo'shin ortidagi karvonga hujum qilib, bir necha xizmatchilarni nobud etadilar.

Bu noxush xabar tezda Sohibqironga yetib boradi.

Shunday hodisa sodir bo'lishi mumkinligini Amir Temur oldindan sezgan edi. Ammo, qo'shin shahardan juda olislab ketgan, noshukrlarni jazolash uchun ortga qaytishi, yana ancha vaqt ketadi. Qo'laversa, Sohibqironning ulkan qo'shiniga arziqli raqib ham emas, ular...

Amir Temur shahar ahli bergan kaphtarlarini ishga soladi. Ot yog'i shimdirilgan matodan uzun-uzun tasmlar qirib, kaphtarlarning oyog'iga bog'lashni, so'ngra tasmlarni yoqib, kaphtarlarni uchirishni buyuradi. Ot yog'i shimdirilgan tasma sekin yonar, ammo shamolda o'chmas ekan. Har

ning Lvov shahrida bobomiz haqida shunday noyob rivoyat tildan-tilga o'tib, bugungacha saqlangan. Demak, Kavkaz, Volgabo'yi va Yaqin Sharq mamlakatlarida ham ulug' bobomiz haqida yuqoridagi kabi rivoyatlar yana topilsa ajab emas...

Oradan ancha yillar o'tgach, ulug' Sohibqiron Amir Temur haqidagi tarixiy haqiqatlarni xolis o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Ibn Arabshoh va boshqa muarrixlarning guvohlik berishicha, Sohibqiron o'zidan omonlik so'ragan kuchsiz raqiblariga doimo shafqatli va kechirimli bo'lgan. Ayniqsa, obod va ko'rkam, ilm-madaniyati gurkirab yashnagan, ma'mur shahar va kentlarni, viloyatlarni g'orat qilishdan o'zini tiygan. Uning bunday fe'lidan boxabar yurt arkonlari unga peshvoz chiqib, peshkashlar qilib, o'z xalqiga omonlik tilar edi. Ikki orada sulh tuzilib, Temurbek qo'shini yo'lida davom etar edi. Bu tarixiy ma'lumot, yuqoridagi hikoya — Lvovda yuz bergan voqeani mantiqiy hamda adolat nuqtai-nazaridan anglashda qo'l keladi.

Har holda, lvo'vliklarning Amir Temur tarixiga o'zgacha qiziqishlari behikmat bo'lmasa kerak. Lvovlik xizmatdoshim so'zlab bergan voqea taxminan qaysi yillarda kechganini aniqlashga harakat qildim. Tarixiy manbalar va olimlar bisotini o'rganish asnosida, bu masalaga asta-sekin oydinlik kirgandek bo'ldi, nazarimda.

1395-yilda To'xtamishxon ustidan qozongan g'alabasi tarixan juda muhim ahamiyatga ega edi. Zotan Amir Temur tomonidan To'xtamishxonga berilgan oxirgi zarbadan so'ng Oltin O'rda qayta o'ziga kelmas va ikkinchi darajali davlatga aylanib qoldi. Uning qo'l ostida qariyb 170 yildan buyon asoratda yotgan xalqlar, jumladan rus xalqi uchun ham istiqbol yo'llari ochildi.

Bu haqda A.Yu.Yakubovskiy shunday deb yozgan edi: "1395-yilda Temurning To'xtamish ustidan qozongan g'alabasi... faqat O'rta Osiyo va o'sha vaqtdagi janubi-sharqiy Yevropa uchungina emas, balki Rus uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi..."

UMID VA QO'RQUV

"Temur tuzuklari"ni mutolaa qilish asnosida "... raiyatni umid va qo'rquv orasida saqladim", degan iboraga besh-olti joyda duch kelamiz. Bu iborada jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan kuch-qudrat, qat'iyat va iroda bilan birga, inson e'tiqodi va tabiatiga xos nozik jihatlar aks etadi.

Muqaddas Qur'oni Karimda Alloh taolo aytadi: "Bandalarimga Yolg'iz Mening O'zim mag'firatli, mehribon ekanimni va Mening azobim eng alamlari azob ekanligini xabar qiling!" (Hijr, 49-50). Ya'ni, ey

ginlab turuvchi kuch sanaladi. Ammo, fuqaro qonun va jazodan qo'rqsa, o'z navbatida "huquq va qonun posbonlari"ni nimsadan qo'rqishi kerak? Qonun — barchaga barobar. Eng asosiysi — o'z banda Yaratganning hukmidan qo'rqishi kerak. Chunki bu hukmni na o'zgartirib va na "aylanib" o'tib bo'ladi.

Umud bo'lmasa, ishonch ham yo'qoladi. Ishonch bo'lmagan joyda turli-tuman qo'rquvlar paydo bo'ladi. Doimiy qo'rquv ichida yurgan odamdan aqlli va xayrlik natija kutish juda qiyindir. Yaratganga nisbatan bo'lmagan qo'rquvlar, iymonsizlik, boshboshdoqlik, oxir-oqibatda esa — halokatga olib ketiladi. Xullas, inson hayotida umid hamda qo'rquv tuyg'ularining o'rni va ahamiyati haqida uzoq so'zlash mumkin.

Ulug' Sohibqironning yuqoridagi birgina iborasi-dan shuncha hikmat topdik. Aslida umid va qo'rquv mohiyati haqidagi fikrlar jamlansa, katta-katta falsafiy kitoblarda paydo bo'ladi...

Bularni nega eslayapmiz? Sababi — hozir aymiralar o'z vazifalarini chin e'tiqod bilan ado etish, haqini halolab olish uchun emas, balki kimdandir qo'rqanidan, "nomiga"gina bajarishga odatlangan. Undaylarning boshida, albatta, "qamchi o'y-natib turish"ga ehtiyoj borligi — juda achinarli.

Do'stim taassufli voqeani aytib berdi: bir tanishli nufuzli oliy o'quv yurtiga rahbar bo'libdi. O'zi — katta olim. Juda madaniyatli odam. Xodimlariga hech qachon ovozi ni balandlatmagan ekan. Afuski, yangi dargohda aynan mana shu "kamchiligi" biroz pand beribdi. Bir gal xo'jalik bo'lmi boshlig'ini chaqiribdi-da, darvozani bo'yab, kirish yo'lagini ta'mirlash haqida topshiriq beribdi. Aytilgan muddat o'tsa-da, bajarilmasmish. Bir necha bor yumshoqlik bilan eslatishga qaramay, natija bo'lmabdi. Ittifoqo, bir do'sti kelib qoladi. Gap ochilib, olim o'zining "quloqsiz" xodimidan shikoyat qiladi.

— Shoshmang, — deydi do'sti. — Siz unga qanday gapirdingiz? Baqirib-so'kdingizmi?

Olim hayron bo'ladi: — Nega baqirib so'kishim kerak?

— Sizning "kamchiligi" ana shunda, — debdi do'sti. — Chaqirig, o'sha xodimingizni. Topshiriq berish qanday bo'lishini ko'rsataman.

Xo'jalik bo'lmi boshlig' kirgach, mehmon unga dabburdustdan "sen'lab dag'dag'a qila ketibdi:

— O'v, menga qara! Men mana bundan ham kattaroq rahbarman. Nega topshiriqni bajarmading? Senga faloncha vaqt: agar aytilgan vaqtda bajar-masang, bu yerdan "quriysan", tushundingmi?! Qanday muammoing borligi meni qiziq-tirmaydi. Muttaham!

Haligi xodim titrab-qaqshab, qo'li ko'ksida, orqasi bilan yurib xonadan chiqibdi. Nariroq borgach, nima debdi deng? — Iya, mana, "normalni" topshiriq bersa ham bo'larkan-ku. Xo'p bo'ladi, bajar-ramiz!

"Qabih odamga saxovat ham, donishlik ham qabihlik bo'lib ko'rinadi: iflosga — ifloslik yo'qadi" (V. Shekspir).

Afsuski, keyingi paytda shundaylar qo'payib boryapti. Bu — o'zining qadri, q'ururi, oriyatini bil-magan qul'sifat kimsalarning qiyofasi. Bundaylar balki "tegishli sharoitlar"da yaxshi ijrochi bo'lishi mumkindir. Ammo hech qachon ishonchli inson bo'lmaydi. Bundaylarning boshini faqatgina zu-g'um va qattiqqo'llik bilan qovushtirish mumkin (Sohibqiron Amir Temur aytganlaridek, doimiy "qo'rquv va umid o'rtasida" ushlash mumkindir). "Kishiga uning yomonligidan qo'rqilgani uchun lutf qilinadi. Ko'rinishda do'st, biroq aslida dushman bo'lgan insonlar soni ortadi. So'zlar hamisha yolg'on va bir-biriga muxolif bo'ladi!"

Shu bois ham Amir Temur vafotidan keyin toj-taxt uchun o'zaro mulosazis talashlar boshlangan. Ko'p o'tmay, ulug' saltanat o'rnida uchta o'zbek davlati paydo bo'lgan. Ular muttasil o'zaro yov-lashgan. Har bir o'zbek davlatida uchrab turgan bir-biridan nodon, johil va uquvsiz hukmdorlar o'shanda millatni borgan sari tubsiz jariat qoqasiga sudrashgan.

Ilmi emas, zulmni sevish, olimga emas, zolim-ga itoat qilishning oqibati — shu.

Davomi kelgusi sonlarda.

Baxtiyor HAYDAROV, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Sohibqironni anglash — o'zlikni anglash



bir kaphtar o'z makoniga, ya'ni poxol tomlarga borib qo'nadi. Shu zahoti yong'in chiqib, tezda butun shahar dahshatli olov ichida qoladi...

"Shu tariqa Amir Temur bizing odamlarni jazolagan, — derdi ukrain og'aynim. — Ochig'ini aytganda, ayb o'zimizdan o'tgan. Biznikilar kelishuvga xiyonat qilishgan. Buni kechirib bo'ladimi? Adolat Amir Temur tomonida bo'lgan. O'sha davr talablaridan kelib chiqqanda, Amir Temur bundan ham qattiqroq jazoni qo'llashga haqli edi..."

Xizmatdosh do'stim aytib bergan bu voqea menda katta taassurot qoldirdi. O'sha paytlar yuqqagina "O'zbekiston SSR tarixi" kitobida Amir Temur haqida "zolim, feodal, bosqinchi" degan uydirmalarni o'qigandik, xolos. Qo'shimcha dars hisoblangan bu kitobchani o'qimasak ham ayb sanalmas, domla "ikki" baho qo'ymasdi. U paytlar "sohibqiron" degan so'zning o'zini-da eshitmagandik. O'sha davr tarbiyasi shunday edi.

Ukrain do'stim bo'lsa, Sohibqiron bobomizni qoralab, yomonotliq qilishga uringani yo'q. Aksincha, uning hikoyasida Sohibqironga ehtirom, uning adolatiga tan bergandek bir ohang sezilgandi. Vatandan uzoqda, G'arbiy Ukraina-

Ma'lumki, 1395-yili Amir Temur xiyonatkor To'xtamishga qarshi uchinchi marta jang boshlashga majbur bo'ldi. Shu yilning 10-aprelida Dog'istonda-gi Terek daryosi bo'yida kechgan ilg'ir jang Sohibqironning g'alabasi bilan yakunlanadi. Amir Temur To'xtamishxonni endilikda siyosat maydonidan butunlay surib tashlashga ahd qilib, Oltin O'rdaning Dnepr tomondagi g'arbiy uluslariga borishga qaror qiladi.

Turun qo'shini chekinayotgan To'xtamishxonni ta'qib qilib, Oltin O'rda poytaxti Saroy Berkani egallaydi. Shundan so'ng Sohibqiron tutiq ber-mayotgan To'xtamish ortidan shimol suri yurishda davom etadi.

Bu jangovar safar haqida keyinchalik o'ris tarixchilari haqiqatga zid uydirma to'qib, uni "tarixiy haqiqat", deya da'vo qiladilar. To'xtamishxon hozir-gi Moskva shahridan nariga — bepoyon o'rmonlar-ga singib, g'oyib bo'ladi. Ayrim tarixiy manbalarga ko'ra, Sohibqiron Moskva yaqinidagi Yelets degan manzilgacha borib, so'ng ortga qaytadi. Xo'sh, bu ma'lumot qaysi manbadan olingan? Nega ulug' Sohibqiron aynan "Moskva yaqinidagi" manzildan ortga qaytgan? U yerda kuchli qo'shin, yoki mustahkam qal'a bo'lganmi? Yo'q.

O'sha paytda Moskva Sohibqiron Amir Temur-dek ulug' zobitning e'tiboriga loyiq shahar emas, yog'och kulbalardan iborat chog'roq bir qo'rg'on bo'lgan. Bu g'arib manzilda Sohibqiron qo'shiniga qarshilik ko'rsatish u yoqda tursin, hatto ularga tik qaray oladigan askariy qism ham mavjud bo'lmagan. "Buyuk knyaz"ning o'zi xotinlar libosini kiyib qochgach, chipta kovush kiygan nochor va "egasiz shaharlik"larda nima ayb?

Tarixiy manbalarda yozilishicha, shundan so'ng Sohibqiron ortga burilib, g'arbda Dneprgacha (ha, o'sha Lvov shahrigacha) bo'lgan yerlarni ishg'ol qiladi. Chunki bu hududlar Oltin O'rda hukmdorlariga qarashli bo'lib, hozirgi harbiy ibora bilan aytgan-da, "front orti xavfsizligini ta'minlash" Amir Temur uchun muhim edi.

Demak, yuqoridagi rivoyatda keltirilgan voqea taxminan 1395-yilda, Amir Temurning To'xtamish-xonga qarshi uchinchi yurishi paytida sodir bo'lgan, deyish mumkin. Kezi kelganda aytish lozimki, Sohibqironning

Muhammad, bandalarimga Men rahmat va mag'firat sohibi ekanimni, ayni paytda Mening azobim juda qattiq va alamlari ekanini aytib, deb amr qilmoqda Alloh taolo.

Ushbu oyat har bir mo'min bandaning xavf va rajo, ya'ni qo'rquv va umid orasida turishi lozimligiga dalolat qiladi.

Umud — ijobiy va hayotbaxsh tushuncha. U har qanday vaziyatda insonni hayotda tutib turuvchi omil. Diniy aqidaga ko'ra, jahannam labiga kelgan-da ham, xayrli oqibatdan umid qilish kerak. Umiddi odam — bunyodkor, vatanparvar, mard, rahmdil, halol... bo'ladi.

Donishmandlar aytish: "Hamma narsa boy berilganda ham oldinda — kelajak bor". Demak, umid bor. Umidi yo'q odam — tirik murda. Umid — eng oxirgi daqiqada o'ladi.

Illatlar esa umidsiz, ishonchsiz odamlarga xos. Nomard, g'irrom, pastkash... kimsalar o'zlariga ham, boshqalarga ham ishonmaydilar. Yaxshi oqibatga umidlari yo'q. Ularning yuragini doimo shubha-gumonlar kemirib boradi. "Noumid — shayton", — deyдилar. Ularning: "Yotib qolguncha, otib qol", — degan "naqli" shundan darak beradi.

Umud va ishonch doimo yondosh, ular bir-biri ni to'ldirib turadi. Chunki umid bo'lmasa, ishonch ham bo'lmaydi. Umidsiz odamga "arg'um" tegib qolsa bormi, u bosar-tusarini bilmay qoladi. Bundaylar oxir-oqibatda o'ziga ham, el boshiga ham kulfat yog'diradi.

Qo'rquv ham — insonga xos tuyg'u. Ammo bunda aniq me'yor bo'lishi lozim. Ortiqcha qo'rquv — aqlni xiralashtiradi. Binobarin, "aqli xira" odamni sog'lom deyish — qiyin. Shuningdek, hech narsadan qo'rqmaslik ham — kasallik. Ongi sog'lom, iymonli odam, yaratguvchi Allohdan, uning qahri va g'azabidan qo'rqishi lozim. Bu umidbaxsh va hayotbaxsh qo'rquvdir. Allohning marhamatiga xuddi o'zingdek muhtoj bandalardan va boshqa maxluqotlardan qo'rqish — iymonning zaifligidan darak beradi. Bunday qo'rquv bandani, shubhasiz, gunohga boshlaydi.

"Hukmdorning qo'lida qurol bo'lmo'g'i shart. Shundagina fuqarolar uni hurmat qiladi". Bu — o'rta asrlarda yashagan olimning fikri. Adolati hukm va muqarrar jazodan qo'rqish — qonunbuzarlarni tiz-

За безопасность труда

ГМЗ-7 — КУРС НА СТРОГУЮ ДИСЦИПЛИНУ

В горно-металлургической отрасли нет мелочей. Здесь каждое действие, каждое решение, каждое движение человека рядом с техникой и оборудованием имеет значение. Ошибка может стоить слишком дорого. Именно поэтому на гидрометаллургическом заводе №7 Центрального рудоуправления АО «Навоийский ГМК» безопасность труда — не формальное требование, а фундамент всей производственной деятельности.

Более тысячи работников ежедневно выходят на смену в цеха предприятия. За их спинами — сложнейшие технологические процессы, десятки единиц оборудования: 12 мельниц, 10 ступителей, разветвлённые технологические цепочки и т.д. В этом ритме производства важно одно — чтобы каждый человек в конце смены вернулся домой живым и здоровым.

Система охраны труда здесь выстроена чётко и последовательно. Её одним из ключевых проводников являются специалисты отдела охраны труда и техники безопасности, заместитель начальника отдела охраны труда и техники безопасности Акмал Тахирович Махмудов — специалист с более чем восемнадцатилетним опытом работы в отрасли. Пройдя профессиональный путь на ГМЗ-2, с 2025 года он продолжает свою деятельность на ГМЗ-7.

Его позиция проста и принципиальна: «Разница между заводами в технологии производственных процессов, а правила

техники безопасности для всех едины». За этими словами — не просто профессиональный взгляд, а философия, которой на предприятии следуют ежедневно. Формирование культуры безопасности начинается с первых шагов работника на заводе. Каждый новичок, практикант, проходит обязательное предварительное обучение в учебном классе. Здесь не просто знакомят с инструкциями, правилами и другими нормативно-техническими документами — здесь закладывают понимание ответственности за собственную жизнь и безопасность коллег.

Подход к обучению дифференцированный. Те, кто занят на особо опасных работах — электрогазосварщики, слесари-ремонтники, аппаратчики, машинисты мельницы и т.д. — проходят углубленную подготовку в течение 15 дней. Для сотрудников административного звена программа короче, но не менее обязательна. По итогам обучения каждый сдает теоретический экзамен перед комиссией из руководителей и специалистов.



Но настоящая проверка начинается в цехе. Практический экзамен на рабочем месте, наставничество в течение 168 часов, постоянное сопровождение опытных работников — всё это превращает знания в навыки, а навыки — в привычку работать безопасно.

Безопасность на ГМЗ-7 — это ежедневная дисциплина. Каждая смена начинается с инструктажа. Мастера и руководители не только ставят производственные задачи, но и напоминают о рисках, акцентируя внимание на деталях, которые могут сохранить здоровье и жизнь.

Система инструктажей охватывает

всех без исключения. Вводный инструктаж обязателен для новичков, практикантов и даже для гостей предприятия. С помощью видеоматериалов и обучающих программ людям наглядно показывают потенциальные опасности: движение техники, особенности оборудования, вредные производственные факторы.

Инструктаж на рабочем месте — это уже точечная работа. Он учитывает специфику каждого участка и каждой профессии. Здесь нет универсальных решений — есть конкретные требования и строгий контроль их выполнения.

Важную роль играет и организация самой системы охраны труда. В отделе

работают три специалиста, но их деятельность поддерживается сетью уполномоченных в каждом цехе. Контроль со стороны профсоюзa усиливает ответственность и делает систему более прозрачной.

Однако безопасность — это не только контроль, но и культура. На территории предприятия размещены агитационные баннеры, плакаты, инструкции, напоминания. Но главное — это живое слово. Руководители цехов регулярно общаются с работниками, напоминая, что «Вас дома ждёт ваша семья». Эта простая мысль становится сильнее любых формальных требований.

На ГМЗ-7 умеют не только требовать, но и мотивировать. Регулярные конкурсы «Знаток охраны труда» среди работников и инженерно-технических работников на лучшее знание правил охраны труда превращают серьёзную тему в пространство профессионального роста. Работники и инженерно-технический персонал соревнуются, демонстрируют знания, делятся опытом. Лучшие представляют предприятие на уровне всего Навоийского горно-металлургического комбината.

Система безопасности не стоит на месте. С приходом нового оборудования и технологий обновляются инструкции, пересматриваются подходы. Специалисты предприятия активно взаимодействуют с коллегами из других подразделений, перенимая лучшие практики и внедряя их у себя.

Контроль ведётся на всех уровнях. Внутренние проверки дополняются инспекциями со стороны руководства Центрального рудоуправления, комбината и государственных органов. Это не давление, а необходимый элемент поддержания высокого стандарта.

Особое место занимают регулярные тренинги для инженерно-технических работников. Здесь разбираются реальные нарушения, анализируются фотофакты, рассматриваются несчастные случаи, произошедшие на других предприятиях. Это честный и иногда жёсткий разговор, цель которого одна — не допустить повторения ошибок.

Современные технологии также становятся союзниками безопасности. В цехах установлены камеры контроля использования средств индивидуальной защиты. Они не просто фиксируют нарушения — они помогают предотвратить их, вовремя сигнализируя руководству. Всё это — элементы одной системы. Системы, в которой безопасность — не лозунг и не отчётный показатель, а ежедневная работа каждого. ГМЗ-7 показывает: настоящая культура охраны труда начинается там, где правила становятся убеждением, а ответственность — личной позицией. И именно такой подход сегодня становится главным ресурсом любого промышленного предприятия.

Насиба ШАМУРАТОВА. Фото с конкурса «Знаток охраны труда»

■ Oramizdagi odamlar

“ODAMGA ODAMLIK HAR KUN QILOLSAK, HAQ O‘ZI ELTADI HIDOYATLARGA”

Shunday insonlar borki, ular o‘zlaridagi ma‘rifatni, yaxshilikni boshqalarga ulashishni, yurti, yurtdoshlarni baxtliyor ko‘rishni istaydilar. Bunday kishilar ulug‘vor ishlarga qodir bo‘ladi va qayerda, qaysi lavozimda ishlamasin, jamiyatga ham, insonlarga ham foyda keltiradi. U yurgan yo‘llarda yaxshiliklar, ezguliklar ildiz otadi, mehr gullaydi, insoniy fazilatlar kamolga etadi. Odamlar ham bunday odamning huzuriga – suhbatiga intiladilar, undan maslahat va madad so‘raydilar. Markazi kon boshqarmasiga qarashli O‘quv markazi direktori G‘ofurjon Yuldashev ana shunday ma‘rifatli insonlardan.



gi haqiqatlar bor bo‘y-basti bilan namoyon bo‘ladi. O‘quvchini muallifning o‘zi ta‘bir qilgandek, “Boshdan do‘ppini olib qo‘yib, mulohaza qilish”ga chorlaydi. G‘ofurjon aka ko‘klam faslida tavallud topganidanmi, uning qalbi adabiyot va san‘atga oshufla. She‘rlarida ham insonlar qalbini sof, muhabbatga to‘la ko‘rishni xohlaydi. Odamiylik mezon bo‘lgan tuyg‘ularni yuraklarga singdirishga intiladi:

Bil, odob beruvchi biz otalarmiz, Bolalarga o‘rnak biz kattalarmiz. Otalik burchida ogoh bo‘lmasak, Kech bo‘lib, tuzalmas xatolarimiz.

Bil, uyning parisi bobo-mososi, Qut-baraka ota-ona duosi. Ulug‘ ajdodlarga munosib bo‘lsak, O‘zbeklikning shudir oliy bahosi.

Ey do‘stim, quloq os hikoyatlarga, Bobolardan meros rivoyatlarga. Odamga odamlilik har kun qilolsak, Haq o‘zi eltadi hidoyatlariga.

onalarining mehri va mehnatlari tufayli erishganlar.

G‘ofurjon aka 1991-yilda oliygohni tamomlagach, Andijon davlat meditsina institutida, Farg‘ona davlat universitetida pedagogik faoliyatini olib bordilar. Otasining armon bo‘lib qolgan harbiylik orzusini ro‘yobga chiqarish uchun, 1995-yili, 29 yoshida O‘zbekiston Respublikasi MXX tizimiga qabul qilindi. Yurt tinchligi, xalq farovonligi yo‘lining uzoq yillar xizmat qilib, 2013-yilda aprel oyida nafaqaga chiqqan G‘ofurjon aka zaxiradagi podpolkovnik harbiy unvoni sohibi. Ko‘plab shogirdlarga kasb sirlarini, hayot saboqlarini uqitirib kelganligi bois, bugun ularning hurmatidan ko‘ngli yayraydi.

Yaratgan mehribon, undan astoydil so‘raganga baxt-saodatni ayamaydi. G‘ofurjon akaning jufti haloli Dilorom Yuldasheva yigirma yildan ortiq Zarafshon shahar 7-sonli Bolalar musiqa va san‘at maktabida yosh avlodga musiqa sirlarini o‘rgatib kelmoqda. O‘quvchilari viloyat va respublika ko‘rik-tanlovlari g‘olibiga aylangan.

G‘ofurjon aka va Dilorom opa ikki o‘g‘il va bir qizni ulg‘aytirib, el koriga yaraydigan insonlar sifatida tarbiyalashdi. Baxtli turmushning eng muhim asoslarini shukronalik, sabr va ertangi kunga ishonchda deb bilishadi. To‘ng‘ich o‘g‘il-

lari Saidmuhammad Farg‘ona davlat universitetida ingliz tili o‘qituvchisi. Qizlari Zulfiyar onasi izidan borib, bugungi kunda Namangan iqtidorli bolalar san‘at maktabida fortepiano o‘qituvchisi bo‘lib ishlayapti. Oilaning kenjasi Saidakbar Farg‘ona “Woolentex” LLC korxonasi-ni BAA Abu Dabi shahridagi xalqaro savdo menejeri.

G‘ofurjon Yuldashevni zarafshonliklarga tanitgan yana bir jihati – uning ijodkorligi, publitsistik, talihli, mulohazali maqolalari orqali muhtariylar e‘tiborini qozonganidir. U yozganlari orqali o‘quvchilarga hayoti davomida anglagan haqiqatlar: “Hayot to‘y ham emas, bayram ham emas, u mashaqqatli kurashdan iborat. Odamiylik, yaxshilik qilish, kechirimlilik, o‘z kuchi va bilimiga ishonch, yashash madaniyatiga amal qilish”ni anglatishga harakat qiladi.

– Yozgan maqolamdagi qadriyatlariga avvalo o‘zim va oilam amal qilamiz. Shunday bo‘lsagina, o‘quvchining yuragiga yetib boradi, – deydi qahramonimiz.

G‘ofurjon akaning ijod namunalari ota-bobolardan meros bo‘lib, avlodlardan o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlar va urf-odatlar, yo‘qolib borayotgan an‘analari, andisha kabi xislatlar haqida-

zabolevanii, v tom chisle virusnykh i serdcheno-sosudistykh. Po ego slovam, zdorovye rabotnikov napryamuyu vliyayet na bezopasnosty truda i proizvoditelnyy.

«Главное — это соблюдение здорового образа жизни, закалывание, занятия спортом, отказ от вредных привычек и эмоциональная устойчивость», — подчеркнул И.Янгибоев. Он также отметил, что своевременное обращение к врачам и

■ На злобу дня

В Цехе сетей и подстанций АО «Навоийский горно-металлургический комбинат» состоялся учебный семинар, приуроченный к Всемирному дню охраны труда, который ежегодно с 1989 года 28 апреля отмечается по инициативе Международной организации труда, а с 2006 года официально признан в Узбекистане. Мероприятие стало частью информационно-просветительской работы, направленной на предупреждение производственного травматизма и сохранение здоровья работников.

БЕЗОПАСНОСТЬ КАК ПРИОРИТЕТ



Открывая семинар, специалисты подчеркнули, что в условиях современного производства вопросы безопасности труда приобретают первостепенное значение. Особенно это актуально для предприятий с повышенным уровнем риска, где даже незначительное нарушение правил может привести к серьезным последствиям. Именно поэтому формирование культуры безопасного поведения остаётся одной из ключевых задач.

С подробным докладом выступил ведущий инженер по охране труда и технике безопасности п.п.Навои Навоийского управления Главного управления ОТиТБ АО «НГМК» Виталий Буюков. В ходе выступления он обозначил основные принципы охраны труда. Среди них — обязательное соблюдение законодательства, системная профилактика травматизма через обучение и инструктаж, использование средств индивидуальной защиты, а также личная ответственность каждого работника за собственную безопасность и безопасность окружающих.

Отдельное внимание было уделено рискам, с которыми сталкиваются сотрудники ЦСипТ. Это не только физические факторы — шум, вибрация, работа с техникой и оборудованием, поражение электрическим током, но и воздействие окружаю-

щей среды. Работы нередко ведутся в открытой местности, где летом существует риск перегрева, а зимой — переохлаждения. Также возможны укусы насекомых и влияние других природных факторов. Не менее значимыми остаются психологические нагрузки, стресс и переутомление.

Практическая часть семинара по оказанию первой помощи вызвала живой интерес у участников. На работнике и манекене были продемонстрированы приёмы оказания первой помощи при переломах, остановке дыхания и других состояниях для проведения неотложной помощи. Такие знания, как отмечалось, могут спасти жизнь до прибытия медицинской помощи не только на работе, но и в быту.

Особо было подчеркнуто, что все служебные автомобили оснащены аптечками, которые регулярно пополняются, а работники обеспечены средствами стабильной телефонной связи, что позволяет оперативно реагировать на любые внештатные ситуации, особенно при работе в удалённых районах.

Дополнением к основной теме семинара стало выступление цехового терапевта медсанчасти комбината Искандара Янгибоева. Он обратил внимание на важность профилактики сезонных



регулярные медицинские осмотры помогают выявлять заболевания на ранних стадиях и предотвращать их развитие.

В ходе семинара также прозвучали практические советы: использование средств индивидуальной защиты, поддержание порядка на рабочем месте, своевременное прохождение инструктажей и обязательное информирование о потенциальных опасностях. Отдельно отмечалось, что усталость и эмоциональное состояние влияют на невнимательность, что может послужить причиной травм, поэтому важно соблюдать режим труда и отдыха.

Особое место в обсуждении занял психологический аспект безопасности. Специалисты подчеркнули, что благоприятная атмосфера в коллективе, взаимная поддержка и уважение способствуют снижению уровня стресса и повышают внимательность сотрудников.

Подводя итоги, участники отметили, что охрана труда — это не формальность, а важнейшая составляющая производственного процесса. Безопасный труд — это основа стабильности, благополучия семей и успешного развития предприятия.

Насиба ШАМУРАТОВА.

■ O‘qing, qiziq

OLTIN HAQIDA NIMALARNI BILAMIZ?

OLTIN IZIDAN

Insoniyat oltinning qanchalik qimmatga egaligini anglab yetganidan so‘ng oltin izlab bormagan joyi qolmagan. Ilk oltin bu qimmatbaho metallga boy qumliklar, daryo irmoqlaridan olingan. Uzoqqa bormaylik, yurtimizning Zarafshon daryosi havzasidan qadimdan tilla olingani haqida ma‘lumotlar ko‘plab uchraydi.

Yillar o‘tib, yirik-yirik oltin konlari ochila boshlandi. Masalan, 1471-yilda hozirgi Gana hududida, keyinroq Meksika, Chili, Peru va Braziliyada, 1745-yilda Uralda, 1823-yilda Kanada va AQShda, 1851-yilda Avstraliyada, 1884-yilda Janubiy Afrika Respublikasidagi konlardan oltin qazib olish ishlari keng ko‘lamda boshlab yuborilgan.

Bu davrga kelib dunyo oltini pulning ekvivalenti sifatida tan olib bo‘lgandi. Shuning uchun uni yanada ko‘proq qazib olish ishlari avjiga chiqib boraverdi. 16-asrda dunyo bo‘yicha jami qariyb 763 tonna oltin qazib olingan bo‘lsa, 19-asrga kelib bu ko‘rsatkich 11616 tonnaga yetdi.

Shu kungacha insoniyat butun tarixi davomida qazib olgan oltin miqdori turli manbalarda turlicha keltiriladi. Ba‘zilar bu ko‘rsatkich 200 ming tonnaga yaqin, deb hisoblaydi. Agar bu miqdor oltin bir joyga yig‘ilsa, bor-yo‘g‘i har bir tomonining uzunligi 20 metr keladigan kubga jo bo‘ladi.

OLTIN QANDAY OLINADI?

Tabiatda oltin sof holda uchraydi. Tog‘ jinslarida u foizning o‘nlab million ulushi miqdorida mavjud. Okean suvlarida ham tilla bor (turli konsentratsiyada, bir tonna suvda 65 mg. gacha). Tabiiy holatda oltin turli shakldagi zarrachalar ko‘rinishda uchraydi va aksariyat hollarda ularning usti boshqa metallar oksidi yoki sulfidining yuqqa qatlami bilan qoplangan bo‘ladi. Ayrim hollarda yirik sof oltin ham uchrab turadi. Og‘irligi 112 kilogrammga cha keladigan sof oltinlar topilgan haqida ko‘plab ma‘lumotlar tarqatilgan. Oltin rudalardan ajratib olinadi. Odat-

da oltin mis va polimetall rudalarida aralash holda ko‘p uchraydi. Shuning uchun bunday konlardan oltin bilan bir qatorda boshqa metallar ham olinadi. Oltinni sanoat usulida olish jarayoni qimmatbaho metallni undagi turli-tuman birikmalardan ajratishga asoslangan. Oddiy, ibtidoiy usulda tilla olish usuli esa ming yillardan beri qo‘llaniladi. Tillaga boy qumlarini suv bilan yuvish orqali qimmatbaho metallni ajratib olishda shu usuldan foydalanilib kelingan. Bizning zamonamizda ham yakka tartibda, ko‘pincha noqonuniy ravishda tilla olishda mazkur usul qo‘llanilmoqda. Qum suvda yuvilgan oltinning og‘ir zarralari pastga cho‘kadi va asta-sekin turli aralashmalardan alohida ajralib olinadi.

OLTIN BUGUNGI KUNDA

Oltin ilinjida odamlar dunyoning eng uzoq va borish qiyin bo‘lgan hududlarini ham zabt etdi. Bu jarayonda kishilarning fe‘l-atvori, davlatlarning o‘zaro munosabatlari ko‘p bora sinovdan o‘tdi. Mazkur jihatlar ko‘plab badiiy adabiyotlarda o‘z aksini topdi. Xususan, Jek Londonning asarlarini o‘qisangiz, oltinning kishilar munosabatlariga qay darajada keskin ta‘sir etishiga guvoh bo‘lasiz.

Bugunga kelib dunyo miqyosida oltin vasvasasi ancha bosilgan bo‘lsa-da, u hali ham o‘z ta‘sirini yo‘qotgani yo‘q. Garchi so‘nggi vaqtlarda yer yuzida oltin konlarini topish anqoning urug‘ini qidirishdek qiyin ish hisoblanasa-da, bu qimmatbaho metallga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, fazoviy tadqiqotlar, tibbiyot, elektronika va sanoatning boshqa tarmoqlarida undan foydalanish tobora kengayib borayotir.

Shuningdek, dunyo moliyaviy bozordagi beqarorlik ko‘pgina davlatlarni o‘z oltin zaxiralariini boyitib boshlash undamoqda. Demak, insoniyat taraqqiyotining hozirgi eng yuqori bosqichida ham bu qimmatbaho metall jahonda o‘z ta‘sirini hali-beri yo‘qotmaydi.

Internet materiallari asosida tayyorlandi.

■ Ibratli rivoyatlar

Rizq

Baland tog‘lar orasida, uzoq-uzoqlarga cho‘zilgan ko‘m-ko‘k o‘rmon bag‘rida kichik bir ovul bor edi. Bu ovulda bir necha oila istiqomat qilar, eng chekkadagi uyda esa bir qari cholu kampir yashardi. Ular qo‘y boqishar, dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanishar, shu tariqa umrguzaronlik qilardilar. Shu yili hosil yaxshi bo‘lmadi. Chaqmoqlar daraxtlarni shikastladi, tinmay yoqqan yomg‘irlar esa meva-sabzavotlarni pishib yetilishiga imkon bermadi. Faqat bitta umid qolgan edi — oxirgi o‘n bosh qo‘yni sotib, bahorgacha yetib olish uchun oziq-ovqat sotib olib, qishga g‘amlab qo‘yish.

Qariya unga beminnat xizmat qilayotgan, yil osha qarib borayotgan otini egarladi. Shu bois ham ot sekin yursa-da, har holda ulov. Qariya qo‘ylarni haydab, vodiy tomon yo‘l olishga shaylandi. Mayin yomg‘ir tinmay tomchilab tushardi. Har doimgidek, xotini uni duo qilib kuzatdi va u uzoq tepalik ortida ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha qarab turdi. So‘ng, xo‘r-sinibgina, uyga qaytdi.

Vaqt o‘tdi. Yomg‘ir kuchayib, haqiqiy jalaga aylandi. Yo‘lda qariya yomon ob-havodan panalash uchun bir g‘orga kirdi. Shu payt choling yoniga, u kabi yomg‘irdan qochgan bir basavlat kishi kelib qoldi.

– Assalomu alaykum, ota! Bunday yomon ob-havoda qayerga yo‘l oldingiz? Yaxshi uy egasi bunday paytda hatto itini ham tashqariga chiqarmaydikul-deya, hazillashgan bo‘ldi, notanish kishi.

– Vaalaykum assalom, — dedi qariya. — To‘g‘ri aytasiz. Ammo mening boshqa choram yo‘q. Qor tushguncha qo‘ylarni sotmasam, xotinim bilan qishdan chiqolmaymiz.

Bu kishi savdogar bo‘lib, gapga juda usta va bahslashishni yaxshi ko‘radigan odam edi. Shuning uchun ham u yana gap tashladi:

– Agar bu jalada qo‘ylaringiz yo‘qolib qolsa-chi? Suv oqimi olib ketsa yoki bo‘riyar yeb qo‘ysa-chi? Unda uyga qaytmasangiz ham bo‘lar ekan-da — xotiningiz sizni “tiriklayin yeb qo‘yadi-ya”!

Qariya kulimsiradi va javob berdi:

– Yo‘q, mening xotinim unaqay ayol emas. Biz yarim asrdan ortiq vaqt birga yashadik, bir-birimizga tirgak bo‘lib, ahil yashadik. U bebaho inson. Bundaylar kam uchraydi. Hayotda nimalarni boshdan o‘tkazmadik, qanday sinovlarga duch kelmadik — hammasiga sabr qildi. Meni yaxshi ko‘radi u.

Savdogarning xotini esa jahldor edi. Shu sabab ham savdogar choling gaplariga ishongisi kelmadi va u bahslashishga qaror qildi:

– Keling, qo‘ylaringizni, sizlarga qo‘shni bo‘lgan ukam yashaydigan ovulda, uning qo‘toniga yashirib qo‘yamiz, uyga borganida esa “yo‘qolib qoldi”,

– deysiz. Bu bahsga men otim va pulimning yarmini tikaman, siz esa otingiz va qo‘ylaringizni. Mening otimga qarang, yosh va baquvvat. Rozimisiz?

– Mayli, sizningcha bo‘lsin, — dedi qariya. — Sizga achinayman-da, inim, uyningizga piyoda qaytishga to‘g‘ri keladi.

– Ko‘ramiz, — dedi savdogar, — qo‘ylaringizni joylashtiraylik-chi.

Tun tushdi. Ular qariyaning uyiga yetib kelishdi. Otlarni bog‘lab, ichkariga kirishdi. Salom-alikdan so‘ng, ustki kiyimlarini yechib, qoziqqa iliishdi. Xotini darhol o‘choqqa olav yoqib, ovqatga unna-di, dasturxon yozdi. Qariya mehmonni tanishtirib, qo‘ylar “yo‘qolganini” aytdi. Ayol xotirjamlik bilan qo‘l yuvishlari uchun ko‘zda suv, dastsho‘y va sochiq olib keldi, ularni dasturxoniga taklif qildi. Savdogar ayolning jahli chiqishini kutdi, ammo ayol faqat jilmayib, ularga g‘amxo‘rlilik bilan xizmat qildi. Oxiri, savdogarning o‘zi chiday olmadi va ayolga qarata dedi:

– Xo‘sh, endi qishni qanday o‘tkazasizlar? Cholingiz e‘tiboriroq bo‘lganida qo‘ylar yo‘qolmas edi-da. Ayol sokinlik bilan javob berdi:

– Hammasi, har doimgidek, Yaratganga bog‘liq. Rizq beruvchi o‘zi. Eng asosiysi, uy sohibi sog‘u salomat eshikdan kirib kelgani, bu jala yuqgan havoda joniga zarar yetmagani. Ayni damda muhimi — mehmon bilan uy egasi yaxshi hordiq chiqarsalar bo‘ladi.

Savdogar “men borligim sabab janjal bo‘lmayapti”, — deb o‘ylab, yana bir-ikki kun mehmon bo‘lib qoldi. U kutgan hodisa ro‘y bermadi, savdogar bahsda yutqazganini tan oldi va mardlaricha, pulning yarmini sanab, stol ustiga qo‘ydi. Tashqaridan otingning kishnaganini eshitildi, go‘yo oti egasi bilan vidolashayotgandek tuyuldi unga. Ketish uchun xayrlashar ekan, u uy egalariga qarata dedi:

– Yarim asr yashadim, ko‘p yerlarda bo‘ldim, ko‘p narsalarni ko‘rdim, turli hulq-atvorli insonlarni uchratdim. Sizlar haqiqiy oilaviy baxt egasi ekan-sizlar — bu uyda mehr va totuvlik hukmron ekan. Og‘a, siz haq ekansiz, bu uying bekasi haqiqatda bebaho ayol ekan. Men bahs boylashni o‘zim taklif qildim, “yutqazaman” deb o‘ylamagan ham edim. Mana bu pul ham, ot ham sizniki, bu halol, men labzimda turadigan insonman, sizlarga buyursin. Qo‘ylarni ham olib keling, farovonlikda yashanglar. Sizlarga juda havasim keldi. Oiladagi totuvlikni saqlaganligingiz bois Yaratgan sizlarga barakali rizq berar ekan.

Kavkaz rivoyatlaridan. NMZ kadrlar bo‘limi muxassisi Dilrabo RAHMATOVA talqinidagi tarjima.

